

MASOFAVIY TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI.

PhD Ergashev Jamshid Baxtiyorovich

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Usarov Sardor Abdunazirovich

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Pardayeva Zamira O'ktamovna

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Mamatov Jasur Asatullayevich.

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lim va uning afzalliklari haqida tushuncha berilgan.

Аннотация: Эта статья дает вам краткий обзор дистанционного обучения и его преимуществ.

Annotation: This article gives you a brief overview on distance learning and its benefits.

Kalit so'zlar: ta'lim turi, ta'lim shakli.

Ключевые слова: тип обучения, форма обучения.

Keywords: type of education, form of education.

Ta'limda yangi informatsion va pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishi o'qituvchi va o'quvchilardan katta tayyorgarlikni, sinf xamda o'quvchilar guruhidagi muxitni uzgartirishni talab etadi. Boshqa tomondan texnologiya atamasi kafolatlangan natija beruvchi jarayon ma'nosiga ega ekanligi e'tiborga olinsa, o'qitishni qanday qilib kafolatdangan natija beruvchi jarayonga aylantirish mumkin degan savolni kelib chiqishi tabiiydir.

Pedagogik texnologiyada o'quv tarbya jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi teng muloqot asosida amalga oshirladi. Bu muloqot davomida ularning xar biri ma'lum faoliyat turlarini amalga oshiradilar.

Yangi informatsion texnologiyalar asosida boshlang'ich maktab matematika mashg'ulotlarini amalga oshirishda masofaviy o'qitish, internet tizimidan foydalanish, AKT dan foydalanish va turli innovatsion usullardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Keyingi vaqtlarda an'anaviy va rivojlantiruvchi o'qitish usullaridan foydalanish masofaviy o'qitish usuli bilan kengaymoqda.

Masofaviy ta'lim - bu oliy o'quv yurtiga kelmasdan turib, yangi axborot texnologiyalari vositalari (telekommunikatsiya, elektron pochta, televideniye va internet ta'lim xizmatidan foydalanish imkonini beruvchi ta'lim turidir.

Ta'limning bu shakli mavjud o'quv vositalaridan ma'lum sabablarga ko'ra foydalana olmaydiganlar (ko'rish va eshitish organlari buzilganlar) uchun o'qish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy ta'lim o'quvchiga ma'lum bir joyga bog'lanib qolmaslik imkonini beradi. U o'quv vazifalarni elektron yoki chop qilingan holda uyda, ish joyda yoki boshqa geografik hududlarda xam maxsus kompyuter va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib oladi va pedagoglar bilan muloqotga kira oladi.

Ta'limning bu turi o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini, ish tempini, qiziqishlarini, uning vaqt byudjetini hisobga olish kabi muxim vazifalarni ijobiy yechishga qaratilgan. Bu ta'lim jarayoning samaradaorligi va sifatini oshiradi, uni an'anaviy ta'limga nisbatan, iqtisodiy jihatdan tejimli qiladi.

Masofaviy ta'limda ma'ruzalar an'anaviy ta'limdagidek bevosita pedagog bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkonini bermaydi. Lekin, o'zining bir qancha afzalliklarga ega:

Ma'ruza materiallarni to'liq ravishda disket yoki disklarga yozib olish imkoniyati yaratilgan;

Zamonaviy axbort texnologiyalarining imkoniyatlari (gipermatn, multimedia, virtual modellar yaratish va boshqalar) ma'lumotlarni jonli, qiziqarli, esda qoladigan qiladi;

O'quv materiali bilan tanishish vaqt yoki masofa bilan cheklanmagan va ularga bog'liq emasligi;

Masofaviy ta'limda pedagogning asosiy ish shakli- maslahat berish va o'quv materialini mustaqil o'rganishga yordam berishdan iborat bo'ladi. Bu jaryonda o'qituvchi o'quvchining intellekti, diqqati, tasavvuri va qiziqishlarini hisobga oladi. O'quvchi bilan muloqot telefon yoki elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

O'quv kurslarini tashkil qilishda maqsad va mazmundan qat'iy-nazar quyidagi talablar hisobga olinishi lozim:

Dastur an'anaviy kitob, video va audio materiallarda bo'lmagan faqat masofaviy ta'limga xos imkoniyatlarga ega bo'lishi;

O'quv materialining boblar, bo'limlar bo'yicha teng taqsimlanishi va o'zaro bog'liqligining ta'minlanishi;

Imkoni boricha dasturiy majmuaning o'quvchi imkoniyatlariga tayyorgarlik darajasiga moslashishi (turli test va boshka usullar bilan bilimni tekshirishdan keyin) imkonini berishi;

o'quv materialining kichik, tugallangan qismlarga (modullarga) ajratilishi;

An'anaviy pedagogikada samaradorligi isbotlangan faollashtirish vositalari (o'yin, ijodiy muhit, nazorat, musobaqa, shu jumladan kompyuter bilan musobaqalashish, yaxshi munosabat va x.k.) dan samarali foydalanish;

Qulay interfeys, o'quv materiallari va topshiriklarning tasodifiy «yo'qolib» qolishidan himoyalanganligi;

Internet o'quvchilarga axbortlar makonidan materiallarni qidirish, qayta ishlash va taqdim qilishda ma'lum bir o'zgaruvchan xarakatlarni tanlash imkonini beradi. Bu o'z navbatida axbortlarning interfaol o'zaro ta'sirini vujudga keltiradi.

Interfaollik – bu foydalanuvchining axborot tashuvchi bilan birga o'zaro ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini, o'z hohishiga ko'ra uni tanlash uzatish tezligini o'zgartirishdir.

O'quvchilarning internetda axbortlar bilan ishlashga tayyorgarligini ko'rsatuvchi vositachilikni tashkil qila bilishini quyidagilar bilan izoxlash mumkin:

Dasturiy vositalar, tarmoqdagi axborot resurslari va kompyuterdan foydalanish;

1. Qidirish tizim va kataloglardan foydalanish;
2. Maqsadga ko'ra kerakli axborotni topish;
3. Axborotni tushuntirish, alternativ qarashlarni asoslash va shakllantirish, axbortning kimga qaratilganligini tushuna bilish;
4. Axborotni saqlash va undan kundalik xayotda foydalanish;
5. Axborotni qayta ishlash va takdim qilish;

Agar o'quvchi yuqoridagilarning barchasini bilsa tarmoqda bemalol ish olib borishi mumkin.

O'quvchilarning bilim olishda internet tarmogidan foydalanishning istiqbollari juda katta, jumladan;

1. Tarmoqda olingan axborotning umum ta'lim kontekstiga qo'shilib bir butun bo'lishi;
2. Ota-ona, o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi axbortlar almashishda turli saytlarni tuzish;
3. Masofadan turib o'qishni tashkil qilish. U ta'lim vazifalarini yechishi, to'ldirishi, ta'sir qilishi va uni qisman almashtirishi mumkin;
4. Ilmiy loyihalarni yaratish, ularni tarmoqqa kiritish va turli o'quv muassasalarda foydalanish.

Yangi informatsion texnologiyalarni matematika darslarida qo'llanilishi ijobiy natijalarni ta'minlovchi muxim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1. Эргашев Ж. “ Психолого-педагогические аспекты использования электронных учебных комплексов по математике ” “Россия Федерацияси, Молодой ученый, илмий журнал, 2014 й, №12”

- 2. S Usarov, S Turdiboyev “BO’LAJAK MATEMATIKA O’QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA MATEMATIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISH”. Журнал математики и информатики 1 (2).
- 3. Usarov, S. (2020). МАКТАБДА МATEMATIKA FANI DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH. Журнал математики и информатики, 1(1).
- 4. Raxmatov, A., Raxmonkulov, F. ., & O’sarov, S. . (2020). ZAMONAVIY ELEKTRON O’QUV MATERIALLARI TAYYORLASHDA ADOBE CAPTIVATE DASTURIDAN FOYDALANISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 2(1).
- 5. Rakhmonkulov, F. (2020). TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VIRTUAL MUHITNI SHAKLLANTIRISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(4).
- 6. Sardor Usarov, Gavhar Mirsaidova “TA’LIMDA KOMPETENTLI YONDASHUV. KOMPETENTLIK VA KOMPETENSIYA HAQIDA.” Журнал математики и информатики, 2021 14-bet.
- 7. Эргашев Ж. “Математик анализ курсини ўқитишда ахборот коммуникатсияси технологияларидан фойдаланиш” “Педагогик маҳорат” илмий-услубий журнал, Бухоро, 20013й, №3